



## MAMLAKATIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN DEMOKRATIK ISLOHOTLARDA YOSHLAR MANFAATLARI SAMARADORLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14032199>

**Tolibov Bekzod Xakimovich**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Ijtimoiy ish kafedrasi mudiri,*

*Sotsiologiya fanlari bo'yicha*

*falsafa doktori PhD*

**Vahobova Tilloxon Xakimjanovna**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Ijtimoiy ish mutaxassisligi magistranti*

### ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda davlatimiz istiqlolining ilk kunlaridanoq o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, yurtimiz aholisining siyosiy, huquqiy madaniyatini, ma'naviyatini yuksak darajada shakllantirish vazifalarini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanganligi, mustaqil davlatchilikni amalga oshirishning, zamonaviy demokratiyani, jamiyat bag'rida chuqur qaror toptirishning eng oqilona yo'li sifatida e'tirof qilish lozimdir. Maqola ayni masalalar yuzasidag atroflicha so'z boradi.

### Kalit so'zlar

yosh avlod, yoshlar, islohot, strategiya, jamiyat.

### ANNOTATSIYA

С первых дней независимости нашей страны задача всестороннего воспитания молодого поколения, формирования политической, правовой культуры и духовности населения нашей страны на высоком уровне определена как приоритет государственной политики, наиболее разумным способом реализации независимой государственности, современной демократии и глубокого урегулирования в обществе. В статье подробно рассматриваются эти вопросы.

### Ключевые слова

молодое поколение, молодежь, реформа, стратегия, общество.

### ANNOTATION

From the first days of our country's independence, the task of comprehensive education of the younger generation, the formation of political, legal culture and



spirituality of the population of our country at a high level has been defined as a priority of state policy, the most reasonable way to implement independent statehood, modern democracy and deep regulation in society. The article examines these issues in detail.

### Keywords

younger generation, youth, reform, strategy, society.

XXI asrning dastlabki o'n yilliklari davomida insoniyat taraqqiyoti bo'yicha to'plangan tajribalardan ma'lum bo'lmoqdaki, endilikda demokratiya va demokratlashtirish masalasi avvalgi asrda namoyon bo'lgan xususiyatlardan ancha farq qilmoqda. Zero, demokratiya hodisasini baholashda XX asrning so'ngi yillarida qo'llanib kelgan mezonlar ham bugungi kunning talablariga javob bera olmay qoldi, demokratiya va jamiyatning demokratlashuvi bilan bog'liq yangi jihatlar o'zini keskin darajada namoyon qila boshladi. Jumladan, vakillik demokratiyasi va uning institutlarini davr ehtiyojlaridan kelib chiqib takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar, xususan axborot texnologiyalarini keskin rivojlanib ketganligi holatini demokratiya qoidalari, qadriyatlari va amal qilish usullariga ta'sirini hisobga olish, eng muhim demokratiyaning jamiyat bag'rida qaror topishi va rivojlanib borishida jamiyat siyosiy tizimining muntazam takomillashuvi va innovatsion siyosatni izchil yo'lga qo'yilishining zarurati, siyosiy tizimning yangilanishi bilan samarali demokratiya o'rtasida ajralmas genetik bog'liqlikning borligi nihoyatda yuqori darajada sezilmoqda.

Shu munosabat bilan siyosiy hokimiyatni amalga oshirish prinsiplarini yetakchi ravishda demokratiyaning yanada samaraliroq bo'lgan modelini qaror toptirib borishga yo'naltirish hozirgi kunda demokratiyaga o'tish qoidalari orasida eng yetakchi bo'lib turibdi. Bu o'rinda asosiy fikr, tashkiliy jihatdan shakllangan demokratiya asoslarini jamiyat miqyosida, yangi siyosiy, huquqiy va ijtimoiymadaniy omillar bilan ta'minlash, demokratiya rivoji uchun alohida olingan bir jamiyat doirasida zarur va dolzarb bo'layotgan siyosiy g'oyalar, qarorlar, huquqiy normalar, konseptual xulosalarni o'z vaqtida amaliyotga kiritib borish ustida bormoqda.

Jamiyatda mavjud bo'lgan demokratiya qoidalari va mezonlarini innovatsion davlat siyosati bilan muntazam qo'llab-quvvatlab borish – hozirgikunda samarali demokratik taraqqiyotining eng muhim va hal qiluvchi shartiga aylandi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Aynan mana shunday jarayonda demokratiyaning zamonaviy ideallari bilan jamiyatning real hayoti o'rtasidagi uyg'unlashuvning ro'y berishi tezlashadi va kafolatli tus oladi. Shu munosabat bilan ta'kidlab o'tish lozimki, bizning mamlakatimizda samarali innovatsion demokratik taraqqiyot ehtiyojlari va talablarini har tomonlama chuqur ta'minlanishi, shart-sharoitlarini



vujudga keltirilishida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini qabul qilinishi ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "mazkur hujjat mohiyatiga ko'ra, jamiyat hayotining barcha sohalaridagi tizimli islohotlarning "yo'l haritasi"ga aylandi" [1].

Bugungi kunda yurtimizda Taraqqiyot strategiyasining ulug'vor konseptual g'oyalari asosida demokratianing eng zamonaviy asoslarini rivojlantirish maqsadida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Zero, aynan siyosiy innovatsiya hozirgi davrning muddaosiga monand bo'lgan taraqqiyotning barcha zaminlari, manbalarini izchillik bilan yaratib borilishini ta'minlab beradi. Chunki jamiyatning innovatsion rivojlanishi demokratianing yangi ufqlari uchun keng yo'lni ochib boruvchi yetakchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev xulosa qilganidek, "Bugungi kunda dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat toboro keskin tus olmoqda. bunday murakkab sharoitda zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish bo'yicha biz uzlusiz ish olib borishimiz kerak.

Nega deganda, bu masala hozirgi vaqtida aholi farovonligini yuksaltirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini barqaror rivojlantirish, vatanimizning yorug' kelajagini bunyod etishning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda" [2].

Ta'kidlash joizki, zamonaviy demokratik taraqqiyotni amalga oshirishda inson salohiyatini yuksaltirish, ayniqsa innovatsion madaniyatni shakllantirish vazifalari ham bugungi kunda o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bizning yurtimizda shu munosabat bilan inson kapitalini rivojlantirish ayniqsa jamiyatimizning buguni va kelajagi bo'lgan yoshlar salohiyatini keskin oshirish bo'yicha keng qamrovli vazifalar ro'yobga chiqarilmoqda. Zero, har tomonlama barkamol yoshlarimiz jamiyatimizda demokrtik islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishining potensial asosidir.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz yoshlarning mamlakatimiz hayotidagi demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishiga ularning siyosiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim" [3].

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonlari, yoshlar bo'yicha amalga oshirilayogan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va ularning jamiyatimiz yoshlari innovatsion faoliyatini rivojlanishidagi ulkan ahamiyati, demokratianing samarali modellarini ro'yobga chiqarilishida yoshlar salohiyatining roli bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan.



XX asrning so'ngi o'n yilliklarida sezila boshlagan va asrimiz boshlarida o'zini yanada yorqinroq namoyon qilayotgan tendensiyalar mohiyatidan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, mustaqil taraqqiyot barqarorligiga, jamiyatda demokratiya tamoyillarining chuqur o'rashib borishiga bevosita daxldor bo'lgan omillar soni nihoyatda ko'payib bormoqda. Shu bilan bir qatorda bunday omillarga nisbatan tom ma'nodagi yangicha yondashuvlar talab etilmoqda. Zeroki, zamonaviy demokratiya tamoyillarining jamiyat sotsio-madaniy asoslari bilan uyg'unlashuvi masalalari, jamiyat a'zolarining umumiy ijtimoiy-madaniy va ma'naviy darajasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni tobora oshirib bormoqda. Shu bois ham suveren davlatning barqaror taraqqiyoti, demokratianing uzluksiz rivojlanishi hamda uning istiqbollari jamiyat bag'rida mislsiz katta quvvatga ega bo'lgan sotsial, manbalarni tinimsiz ravishda shakllantirib borishni taqazo qilmoqda. bu o'rinda asosiy fikr mamlakat aholisining sifat ko'rsatkichlarini muttasil ravishda rivojlanirib borish, mamlakat fuqarolarining demokratik yangilanishlarning to'la ma'nodagi tayanchiga, istiqbol sari yetaklab boradigan kuchiga aylantirib borish zarurati ustida bormoqda.

Sir emaski, dunyoda avvalgi davrlarda ham inson faktori mustaqil demokratik taraqqiyot markazida turgan bo'lsada biroq ohir oqibatda demokratiya institutlari va umumiy qoidalariga bo'lgan e'tibor ustuvorlik qilar edi. hozirgi vaqtida esa vaziyat butunlay o'zgardi. Hech qachon bugungi kundagidek demokratik taraqqiyot uchun inson omilining sifat ko'rsatkichlariga nisbatan kuchli talablar qo'yilmagan edi.

Bunday holat yashab turgan davrimiz sharoitlari, jumladan suveren davlatning xavfsiz taraqqiyotiga nisbatan xalqaro globallashuv bag'rida mavjud bo'lgan ayrim salbiy tenedensiyalar ta'siri hamda zamonaviy demokratiya mezonlarining kengayishi bilan hamda inson omilining mohiyatida yashiringan potensial imkoniyatlarni harakatga keltirish, safarbar qilish vazifalari bilan izohlanadi.

Shu bois ham mustaqil demokratik taraqqiyotning institutsional asoslari bilan bir qatorda uning sotsial imkoniyatlarini nihoyatda kuchli ravishda rivojlanirish, zamonning eng dolzarb talablaridan kelib chiqqan holda demokratik yangilanishlar jarayonining xal qiluvchi ustuniga aylantirish orqaligina mustaqil demokratik taraqqiyotning kelajagini kafolatli ravishda ta'minlash mumkin bo'ladi.

Mazkur holatdan kelib chiqilganda, mamlakatimizda davlatimiz istiqlolining ilk kunlaridanoq o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, yurtimiz aholisining siyosiy, huquqiy madaniyatini, ma'naviyatini yuksak darajada shakllantirish vazifalarini davlat siyosatining ustuvor yo'naliishi sifatida belgilanganligi, mustaqil davlatchilikni amalga oshirishning, zamonaviy

demokratiyani, jamiyat bag'rida chuqur qaror toptirishning eng oqilona yo'li sifatida e'tirof qilish lozimdir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan yoshlari va ular haqida g'amxo'rlik qilish siyosati, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan umumiy yetakchi tamoyil - inson manfaatlarining ustunligini amalda ta'minlashga yo'naltirilgandir.

Zeroki, jamiyatimizda tobora yuksakroq pog'onaga ko'tarilib borayotgan demokratik taraqqiyot jarayonlarining zaminida inson omili turadi, ya'ni jamiyatimizni demokratlashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad, uning har bir a'zosi uchun hech kimdan kam bo'lмаган munosib turmush sharoitlarini yaratishdan iboratdir.

Bu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan demokratik islohotlar o'zining yangi sifat bosqichiga qadam qo'ygan hozirgi paytda, mazkur bosqichning strategik vazifalari bilan hamohang ravishda jamiyatimiz yoshlari manfaatlarini yanada kuchliroq darajada ro'yobga chiqarishga qaratilgan strategik siyosat amalga oshirilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya - erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir.-T.: O'zbekiston, 2018. - B.7.
2. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya- erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir.-T.: "O'zbekiston", 2018. B.24.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Yoshlariga bayram tabrigi // Xalq so'zi, 2019 yil 1 iyul. № 133(7363)